

SHAXSIY IDENTITET VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdulazizbek Qodirov

Qo'qon universiteti Andijon filial dotsenti v.b., f.f.f.d(PhD)

Abdulazizzzkodirov@gmail.com

ORCID : 0009-0003-52597419

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22155705>

Annotatsiya: Maqolada shaxsiy identitet tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy va milliy identitetdan farqli jihatlari hamda badiiy matnda ifodalanish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsiy identitetning uzluksizlik, betakrorlik, o'z o'zini anglash va hikoya qilish orqali qurilish kabi asosiy xususiyatlari nazariy manbalar asosida aniqlanadi va ular she'riy matn misolida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, o'zbek adabiy tafakkuriga xos "o'zlik" tushunchasi bilan "identitet" atamasining munosabati masalasi ko'rib chiqiladi. Muallif badiiy matnda shaxsiy identitet uch xil yo'l bilan, ya'ni tasdiq, inkor va chegaralash orqali qurilishini asoslaydi.

Kalit so'zlar: shaxsiy identitet, o'zlik, lirik "men", uzluksizlik, o'z o'zini anglash, narrativ identitet, identitet inqirozi.

Identitet masalasi so'nggi yillarda gumanitar fanlarning deyarli barcha sohalarida markaziy o'ringa chiqdi. Bu tasodifiy hodisa emas. Jamiyat tez o'zgarayotgan, an'anaviy turmush tarzi yangi shakllar bilan almashayotgan davrda inson o'zi haqidagi savolga tayyor javob topa olmay qoladi va shu savol ilm ahlining ham diqqatini tortadi. Identitet keng tushuncha bo'lgani uchun uni tahlil qilishda avvalo turlarga ajratish talab etiladi. Ilmiy adabiyotda odatda shaxsiy, ijtimoiy, milliy madaniy, axloqiy ma'naviy, gender va makon identiteti kabi turlar farqlanadi. Ana shu turlar orasida shaxsiy identitet alohida o'rin egallaydi, chunki qolgan barcha turlar oxir oqibat shaxs ongida birlashadi va shaxsiy identitet ular uchun asos vazifasini o'taydi. Inson o'zini qaysidir xalqning farzandi, qaysidir kasb egasi, qaysidir avlodning vakili deb bilishi mumkin, lekin bu bilishlarning barchasi bitta "men"ga tegishli bo'ladi.

Mazkur maqolada shaxsiy identitetning mohiyati, uni boshqa turlardan ajratib turadigan xususiyatlari va badiiy matndagi ifodasi masalasi ko'rib chiqiladi.

Shaxsiy identitet muammosi falsafada ancha ilgari, ya'ni inson vaqt o'tishi bilan o'zgarsa ham nega o'sha odam bo'lib qolaveradi degan savol bilan boshlangan. Jon Lokk bu savolga xotira orqali javob bergan edi, ya'ni insonni o'zi bilan bir qiladigan narsa uning o'z o'tmishini eslay olishidir [1:98].

Zamonaviy ilmda bu masalani Erik Erikson psixologik jihatdan asoslab berdi. Uning ta'limotiga ko'ra, identitet shaxsning o'zi haqidagi barqaror va uzluksiz tasavvuri bo'lib, u yoshlik davrida shakllanadi va o'sha davrda muqarrar ravishda inqiroz bosqichidan o'tadi. Erikson uchun inqiroz salbiy hodisa emas, aksincha o'zlikni topishning zaruriy sharti [6:87]. Jeyms Marsiya bu nazariyani rivojlantirib, identitet holatining to'rt turini ajratdi va ular orasidagi eng barqaror shakl izlanish va mustaqil tanlovdan keyin qo'lga kiritilishini ko'rsatdi [3:89]. Pol Riker shaxsiy identitetni ikki qatlamga bo'ladi. Birinchisi o'zgarimaslik qatlami, ya'ni insonning takrorlanuvchi belgilari, ikkinchisi esa o'zini o'zi anglash qatlami, ya'ni "men kimman" degan savolga berilgan javob. Rikerning fikricha, ikkinchi qatlam faqat hikoya orqali, ya'ni inson o'z hayotini bir butun voqea sifatida bayon qilishi orqali shakllanadi [5:87]. Entoni

Giddens ham zamonaviy shaxsni to'xtovsiz davom etadigan o'z haqidagi hikoya sifatida tavsiflaydi [6:87]. O'zbek adabiy tafakkurida bu masala ko'p asrlar davomida "o'zlik" tushunchasi orqali ifodalab kelingan. Klassik she'riyatda o'zlikni anglash tasavvufiy ma'noda, ya'ni inson o'zini bilgach Yaratuvchini bilishi tarzida talqin qilingan. Jadid adabiyotida esa bu tushuncha ijtimoiy ma'no kasb etib, millatning uyg'onishi bilan bog'landi. Istiqlool davrida "o'zlik" yana ma'no o'zgarishiga uchradi va u ko'proq shaxsning ichki mustaqilligi, o'z fikri va o'z ovozigga ega bo'lishi ma'nosida qo'llanadigan bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, "o'zlik" bilan "identitet" bir xil tushunchalar emas. "O'zlik" milliy tafakkurga xos, qadriyat bahosi yuklangan so'z bo'lib, uni yo'qotish salbiy hodisa deb qaraladi. "Identitet" esa tahlil atamasi bo'lib, u baho bermaydi, faqat shaxs o'zini qanday belgilayotganini tavsiflaydi.

Tadqiqotda bu ikki so'zni aralashtirib yuborish xulosalarni noaniq qilib qo'yadi. Nazariy manbalar tahlili shaxsiy identitetni boshqa turlardan ajratib turadigan bir necha belgini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi xususiyat uzluksizlik. Shaxsiy identitet vaqt o'qi bo'ylab cho'ziladi, ya'ni u kechagi, bugungi va ertangi "men"ni bir chiziqqa tizadi. Inson o'zgaradi, yoshi ulg'ayadi, qarashlari boshqacha tus oladi, biroq o'zini shu o'zgarishlar ortida turgan bitta odam deb his qiladi. Aynan shu his zaiflashganda identitet inqirozi yuzaga keladi. Badiiy matnda uzluksizlikning buzilishi ko'pincha o'tmishdagi "men" bilan hozirgi "men"ni qarshilantirish orqali beriladi.

Ikkinchi xususiyat betakrorlik. Ijtimoiy identitet o'xshashlikka tayanadi, ya'ni inson o'zini boshqalarga o'xshatib belgilaydi. Shaxsiy identitet esa aksincha, farqlanishga tayanadi. Bu yerda muhim savol shaxs nimasi bilan boshqalardan ajralib turishidir. She'riyatda bu xususiyat ovoz masalasi tarzida namoyon bo'ladi, ya'ni shoirning o'z ohangi bo'lishi uning shaxsiy identiteti bilan bevosita bog'liq.

Uchinchi xususiyat refleksivlik, ya'ni o'zini o'zi kuzatish qobiliyati. Shaxsiy identitet shaxs o'zini tashqaridan turib ko'ra olgandagina shakllanadi. Shu bois lirik matnlarda o'z ustida mulohaza yuritish, o'ziga savol berish, ba'zan o'zi bilan bahslashish holatlari ko'p uchraydi.

To'rtinchi xususiyat hikoyaviylik. Riker ko'rsatganidek, inson o'zini ta'rif orqali emas, hikoya orqali tushunadi. Shaxsiy identitet doim biror voqea, biror tarix, biror yo'l bilan bog'lanadi. She'riyatda bu xususiyat qisqa lirik parchaning ham ichki syujetga ega bo'lishida ko'rinadi.

Beshinchi xususiyat tanlov va mas'uliyat. Ijtimoiy yoki milliy identitet insonga ko'p hollarda tug'ilishi bilan beriladi, shaxsiy identitet esa tanlab olinadi. Shuning uchun u erkinlik bilan ham, mas'uliyat bilan ham bog'liq. Aynan shu jihat uni eng nozik va eng oson yemiriladigan tur qilib qo'yadi.

Badiiy matnda shaxsiy identitet lirik "men" obrazi orqali quriladi. Tahlil ko'rsatadiki, bu qurilish uch xil yo'l bilan amalga oshadi.

Tasdiq orqali qurilgan "men". Bunda lirik qahramon o'zini to'g'ridan to'g'ri belgilaydi, ya'ni men shundayman, men kimman degan savolga aniq javob beradi. Bunday matnlarda ot kesim shakllari, takroriy sintaktik qurilmalar va qat'iy ohang ustunlik qiladi. Shoirning taxallusi ham ko'pincha shu javobning bir qismiga aylanadi.

Inkor orqali qurilgan "men". Bu modelda o'zlik yetishmovchilik, yo'qotish va ojizlik tili bilan ifodalanadi. Lirik qahramon o'zining kimligini emas, kim emasligini aytadi. Bunday

matnlarda inkor shakllari, "men esa" tarzidagi qarshilantirish va tugallanmagan javoblar ko'p uchraydi. Aynan shu model identitet inqiroziga eng yaqin turadi.

Chegaralash orqali qurilgan "men". Uchinchi yo'l o'zlikni ta'rif bilan emas, boshqa birovga qo'yilgan taqiq bilan belgilashdir. Bu holat Abduvali Qutbiddinning quyidagi she'rida yaqqol ko'rinadi:

Ko'zingni tiqma, bu mening boshpanam,
 Poygakdan mo'ltayma, aslo qo'ymayman,
 Yurak deb atalgan qizil oftobadan
 O'zim qon ichgayman, senga quymayman.
 Barmog'ing niqtama, mening peshonam
 Xati tirnog'ing-la yozilmagandir.
 Men bilan Xudoning o'rtasida g'am
 Arig'lari sen-la qazilmagandir.

She'rda lirik qahramon o'zi haqida biror ijobiy ta'rif bermaydi. Uning kimligi butunlay boshqa shaxsga qaratilgan taqiqlar orqali chiziladi, ya'ni qarama, tiqilma, qo'yma degan buyruqlar zanjiri "men"ning chegarasini belgilaydi. Bu yerda identitet makon tarzida tasavvur qilinadi, boshpana so'zi esa shu makonning nomiga aylanadi. Yurakning qizil oftobaga qiyoslanishi va undan faqat egasi ichishi mumkinligi haqidagi tasvir ichki dunyoning boshqalarga ochilmasligini ta'kidlaydi.

She'rning ikkinchi bandida esa chegara yanada balandroq nuqtaga ko'chadi, ya'ni inson bilan Yaratuvchi orasidagi munosabatga hech kim aralasha olmasligi aytiladi. Bu uch model bir shoir ijodida yonma yon yashashi ham mumkin. Shunday hollarda tadqiqotchi ularni bir biriga qarshi qo'ymasdan, shaxsiy identitetning turli holatlaridagi ifodasi sifatida qarashi to'g'riroq bo'ladi.

Shaxsiy identitet mavzusida ish olib borishda ikki xatoga yo'l qo'yish ehtimoli katta. Birinchisi har qanday "men" she'rini identitet matni deb qabul qilishdir. Lirik she'riyatning tabiati shundayki, unda "men" deyarli doim ishtirok etadi. Biroq identitet tahliliga faqat "men kimman" degan savol matnning o'z mavzusi bo'lgan she'rlargina asos bo'la oladi. Aks holda nazariya matnga tashqaridan yopishtiriladi va xulosa ishonchsiz chiqadi. Ikkinchisi lirik qahramonni muallif bilan aynanlashtirishdir. She'rdagi "men" shoirning tarjimaiy holidagi shaxs emas, badiiy qurilma. Shu bois tahlilda shoir shunday his qilgan degan xulosa emas, matnda "men" shunday qurilgan degan xulosa chiqarilishi kerak.

Shaxsiy identitet insonning o'zi haqidagi barqaror, uzluksiz va boshqalardan farqli tasavvuri bo'lib, u tayyor holda berilmaydi, balki izlanish va tanlov orqali qo'lga kiritiladi. Uni identitetning boshqa turlaridan ajratib turadigan asosiy belgilar vaqt bo'ylab uzluksizlik, betakrorlik, o'zini o'zi kuzata olish, hikoya orqali qurilish hamda tanlov erkinligi bilan bog'liqlikdir. Aynan shu belgilar tufayli shaxsiy identitet eng harakatchan va shu bilan birga eng zaif tur hisoblanadi, chunki tashqi tayanchlar yemirilganda u birinchi bo'lib zarba oladi.

Badiiy matn shaxsiy identitetni o'rganish uchun alohida qiymatga ega, chunki unda bu jarayon nazariy ta'rifda emas, tirik nutq holatida namoyon bo'ladi. She'riyatda o'zlik uch yo'l bilan, ya'ni o'zini ochiq tasdiqlash, yetishmovchilikni tan olish va o'z chegarasini himoya qilish orqali quriladi. Bu uch yo'l bir birini inkor etmaydi, aksincha shaxsning turli holatlaridagi ovozini ko'rsatadi.

Shu ma'noda shaxsiy identitet tahlili adabiyotshunoslikda faqat obraz o'rganish emas, balki inson haqidagi tasavvurning o'zgarish tarixini kuzatish imkonini beradi va bu yo'nalish zamonaviy o'zbek she'riyatini tadqiq qilishda kelgusida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Locke J. An Essay Concerning Human Understanding. Book II, Ch. XXVII. – London, 1690.
2. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968. – 336 p.
3. Marcia J.E. Development and Validation of Ego Identity Status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol. 3, No. 5. – P. 551–558.
4. Ricoeur P. Oneself as Another. – Chicago: University of Chicago Press, 1992. – 363 p.
5. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Cambridge: Polity Press, 1991. – 256 p.
6. Taylor Ch. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – 601 p.
7. Qutbiddin A. Xayol kechasi: she'rlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.